O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 15 - dekabr 428-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-439-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-439-sonli qarori ijrosini ta’minlash barobarida viloyatda yer osti suvlaridan foydalanish va quduq burg‘ilash tizimini yanada takomillashtirish, yer osti suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholi orasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, ularning miqdor jihatdan kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish hamda pirovard natijada aholini uzoq muddatli istiqbolda sifatli ichimlik suv bilan ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-439-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Belgilansinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

a) yer osti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrdan ortiq pasayib ketgan hududlarda yerlarni sug‘orish va ishlab chiqarish maqsadlariga

gidrogeologik xulosa berish, yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash hamda mavjud quduqlardan yerlarni suv tejovchi texnologiyalarsiz sug‘orish taqiqlanadi, bundan tasdiqlangan davlat dasturlari doirasida va jismoniy shaxslar tomonidan chuqurligi 25 metrgacha bo‘lgan quduqlarni burg‘ilash hamda sutkasiga 5 metr kubgacha hajmdagi yer osti suvlarini shaxsiy ehtiyojlar uchun yakka tartibda olish mustasno;

b) yer osti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrgacha pasaygan hududlarda yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilashga gidrogeologik xulosa va suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnoma Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi (bundan buyon-Davlat geologiya qo‘mitasi) tomonidan:

qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini sug‘orish maqsadlari uchun - suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish shartlari bilan Suv xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan holda;

ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun - hududiy rivojlantirish dasturlari va suvdan tejamli foydalanish shartlariga asosan viloyat hokimligi bilan kelishilgan holda beriladi;

v) qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalardan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqalar) foydalanilmaganda burg‘i quduqlaridan foydalanishni taqiqlash Davlat geologiya qo‘mitasi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi (bundan buyon-Inspeksiya) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2023-yil 1-apreldan boshlab:

yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash uchun ruxsatnoma berishning amaldagi tartibi bekor qilinadi hamda Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga (bundan buyon-burg‘ilovchi subyektlar) yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash faoliyatiga ruxsatnoma berish tartibi joriy etiladi;

burg‘ilovchi subyektlarga o‘z tasarrufidagi burg‘ilash uskunalarini GPS-trekerlar bilan jihozlash va ularni doimo ishchi holatda saqlash majburiyati yuklatiladi;

qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli texnik hujjatlarga ega bo‘lmagan burg‘ilash uskunalari yordamida yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash taqiqlanadi va Inspeksiya tomonidan bunday holatlar aniqlangan taqdirda, burg‘ilash uskunalarini musodara qilish yuzasidan sudga murojaat etiladi;

yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash faoliyatiga ruxsatnomaning talab va shartlarini bajarmaganlik uning amal qilishini to‘xtatib turishga, gidrogeologik xulosasiz burg‘ilash ishlarini olib borish esa ruxsatnomani bekor qilishga asos bo‘ladi;

yer osti suv olish inshootlariga (burg‘i qudug‘i, buloq kaptaji) ega bo‘lgan barcha yer osti suvlaridan foydalanuvchilarga yillik suv olish miqdori to‘g‘risidagi hisobotni belgilangan tartibda Davlat geologiya qo‘mitasining hududiy gidrogeologiya stansiyalariga topshirish majburiyati yuklanadi;

viloyat hokimligi tomonidan shakllantiriladigan yer osti suvlari hisobiga suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha istiqbolli dasturlar Davlat geologiya qo‘mitasi bilan kelishilishi shart.

4. Viloyatda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kompleks chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan mas’uliyat tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari zimmasiga yuklansin.

5. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi (O‘.Mamadaminov) tuman bo‘limlari va tuman hokimliklari bilan birgalikda mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab fuqarolar yig‘inlari a’zolari tomonidan o‘zlariga biriktirilgan hududlarda yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash holatlari bo‘yicha Inspeksiyaga yoki hududiy gidrogeologiya stansiyalariga xabar berib borilishini ta’minlasin.

6. Belgilansinki, yer osti suvlaridan foydalanuvchilarga:

2023-yil 1-yanvarga qadar yer osti suvlaridan foydalanishning aniq hisobini yuritish maqsadida o‘z tasarrufidagi yer osti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan belgilangan tartibda jihozlash majburiyati yuklatiladi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab suvni hisobga olish vositalari bilan jihozlanmagan yer osti suv olish inshootlaridan foydalanish taqiqlanadi (bundan jismoniy shaxslarga shaxsiy va xo‘jalik ehtiyojlari uchun yakka tartibda sutkasiga 5 metr kubgacha bo‘lgan miqdorda yer osti suvlarini olish mustasno).

7. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (J.G‘oibov):

yer osti suvlaridan foydalanuvchilar tomonidan suv olish inshootlarida o‘rnatilgan suvni hisobga olish vositalari plombalanishi, ro‘yxatga olinishi va ishchi holatining monitoringini ta’minlab borsin;

yer osti suvlaridan foydalanuvchilar tomonidan suvni hisobga olish vositalarisiz suv olinganida soliq to‘lovini belgilangan soliq stavkasining besh baravari miqdorida undirish choralarini ko‘rsin.

8. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Davlat

geologiya qo‘mitasining:

hududlarda yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan samarali foydalanish sohasida davlat nazoratini kuchaytirish maqsadida Inspeksiya shtat jadvaliga tizim tashkilotlari boshqaruv xodimlari sonini mos ravishda qisqartirish hisobidan 13 ta inspektor lavozimini kiritish;

“O‘zbekgidrogeologiya” DUK tarkibiga “Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmati” davlat muassasasini kiritish orqali respublikada yer osti suvlari hamda xavfli geologik jarayonlarning yagona monitoring tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi inobatga olinsin.

9. Quyi-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (Isroilov) va tuman hokimliklari:

bir hafta muddatda mazkur qarorning 1-ilovasidan kelib chiqib, tegishli hududlarda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha “Yo‘l xarita”larini tasdiqlasin;

Inspeksiya Davlat soliq boshqarmasi hamda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalari bilan birgalikda doimiy asosda yer osti suv quduqlarini noqonuniy burg‘ilash va suv olish holatlari ustidan nazoratni kuchaytirsin va ta’sirchan choralar ko‘rib borsin.

10. Viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov) Quyi-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (Isroilov), Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (I.Tog‘ayev), Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (B.Samadov), tuman hokimliklari bilan birgalikda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish sohasidagi dolzarb masalalar yuzasidan tizimli ravishda teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar tayyorlanishi va efirga uzatilishini ta’minlasin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Pezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi PQ-439-sonli qarorining 4-ilovasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 5-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yuqotgan deb hisoblanganligi inobatga olinsin.

12. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari D. Abduraxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Maxmudaliyev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2022 yil 15 dekabrdagi
428-9-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Viloyatda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Muddati	Moliyalashtirish manbai	Bajarish uchun mas’ullar
1. Yer osti suvlaridan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar				
1.	Barcha shahar va tuman hududlaridagi mavjud yer osti suv olish inshootlarini xatlovdan o‘tkazish hamda ulardan oqilona foydalanish (shu jumladan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish) yuzasidan foydalanuvchilarga ko‘rsatmalar berish.	2023-yil yanvar	Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturi vazirlik va idoralar dasturlari doirasida	“Viloyat suv ta’minoti” MChJ, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, shahar va tuman hokimliklari
2.	Xatlov natijasi bilan quyidagilar bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish: suvdan foydalanuvchilar tomonidan ruxsatsiz burg‘ilangan quduqlarni keyinchalik ulardan oqilona foydalanish maqsadida tegishlicha hisobga olish (texnik pasport tayyorlash, suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnoma rasmiylashtirish, suv hisoblash vositalarini o‘rnatish); tashlandiq va egasiz, lekin texnik yaroqli bo‘lgan suv olish inshootlarini muayyan suvdan foydalanuvchilarga keyinchalik foydalanish uchun berish; tashlandiq, egasiz va yaroqsiz bo‘lgan suv olish inshootlarini Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda tugatish; suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llamagan holda hamda yer usti suv manbalari mavjud bo‘lgan hududlarda chuchuk yer osti suvlaridan yerlarni sug‘orish maqsadida foydalanilayotgan quduqlar faoliyatini to‘xtatish.	2023-yil avgust	-	“Viloyat suv ta’minoti” MChJ, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi, shahar va tuman hokimliklari
3.	Suvdan foydalanuvchilarga mavjud quduqlar uchun texnik pasportlar tayyorlash, suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalari olish, quduqlarni suv hisoblash vositalari bilan jihozlashni targ‘ibot qilish, olinayotgan suv hisobini yuritish va tegishlicha axborotni hududiy gidrogeologiya stansiyalariga taqdim etib borish yuzasidan amaliy yordam va ma’lumotlar berish.	2022-2023-yillar	-	Viloyat gidrogeologiya stansiyasi, shahar va tuman hokimliklari
4.	Yer osti suvlaridan foydalanuvchilarga berilgan ko‘rsatmalarining o‘z vaqtida bajarilishi ustidan tizimli monitoring olib borish.	doimiy	-	Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, “Viloyat suv ta’minoti” MChJ, Ichimlik suvini nazorat qilish inspeksiyasi, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi, shahar va tuman hokimliklari
5.	Yer osti suvlari holati va ulardan foydalanish ustidan davlat monitoringini kuchaytirish.	2022-2023-yillar	Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturi	Viloyat gidrogeologiya stansiyasi

6.	Viloyat bo‘yicha yer osti chuchuk suvlari hosil bo‘ladigan maydonlarda tashkil etilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlaridan foydalanuvchilar va potensial ifloslantirish manbalarini qayta xatlovdan o‘tkazish, xaritalash geoaxborot bazasiga kiritish.	2023-yil noyabr	Vazirlik va idoralar dasturlari doirasida	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi, shahar va tuman hokimliklari
2. Yer osti suvlaridan oqilona foydalanish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish				
7.	Yer osti suvlarini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik normalari va talablari yuzasidan aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zarurligini suvdan foydalanuvchilarga yetkazish choralarini ko‘rish.	2022-2023-yillar	-	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, “Viloyat suv ta’minoti” MChJ, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi, shahar va tuman hokimliklari
8.	Yer osti suvlarini muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarini keng tushuntirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida “davra suhbatlari” va boshqa amaliy tadbirlarni o‘tkazish.	tizimli ravishda	-	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, “Viloyat suv ta’minoti” MChJ direktori, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi, shahar va tuman hokimliklari
9.	Joylarga chiqqan holda aholi bilan uchrashuvlarni tizimli asosda amalga oshirish, suv resurslaridan samarasiz foydalanish oqibatlarini tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	2022-2023-yillar	-	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, “Viloyat suv ta’minoti” MChJ, viloyat Gidrogeologiya stansiyasi, shahar va tuman hokimliklari